

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ARZIEV RUSLAN ARISLANBAEVICH**

**IJTIMOYIY FIKRNI SHAKLLANTIRISHDA  
ZAMONAVIY MEDIAMARKAZLARNING O‘RNI  
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

UO‘K: 1:316(575.172)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Arziev Ruslan Arislanbaevich**

Ijtimoiy fikrni shakllantirishda zamonaviy mediamarkazlarning o‘rni  
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) .....5

**Арзиев Руслан Арысланбаевич**

Роль современных медиационных центров в формировании общественной мысли  
(на примере Республики Каракалпакстан) .....23

**Arziev Ruslan Arislanbaevich**

The role of modern media centers in the formation of social opinion  
(in the case of the Republic of Karakalpakstan) .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ARZIEV RUSLAN ARISLANBAEVICH**

**IJTIMOYIY FIKRNI SHAKLLANTIRISHDA  
ZAMONAVIY MEDIAMARKAZLARNING O‘RNI  
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1472 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turdiyev Bexruz Sobirovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Choriev Sanjarbek Anvarovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Norqulov Suxrob Dusmuradovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “ 9 ” avgust soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (697 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “ 26 ” iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil “ 26 ” iyul dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan axborot urushlari sharoitida ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy kommunikatsiya va axborot markazlari doimiy ravishda axborot olish, o'zini namoyon qilish, ta'lim va muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Demokratiya va so'z erkinligini umuminsoniy voqelikka aylantirib, kelgusida ijtimoiy taraqqiyotni mediamarkazlar faoliyati va mobilligiga bog'liq ekanligini anglash jamoatchilik fikrini ijobiy tomonga yo'naltirishga, milliy va mintaqaviy barqarorlikka erishishda muhim hisoblanadi. Shuning uchun Qoraqalpog'iston ijtimoiy-ma'naviy muhitida jamoaviy ongni mustahkamlashda zamonaviy mediamarkazlarning tashkiliy-institutsional tizimlari va sotsiodemokratik funksiyalarini aniqlash, ularning ijtimoiy fikrni verbal va vizual demokratiya vositalari orqali shakllantiruvchi institutlar sifatidagi xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda jamoatchilik fikrining shakllanishi va ommaviy axborot vositalarining roli, mediatizatsiya nazariyalari, media monitoring va ijtimoiy dinamika kabi muammolar bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mediamarkazlar va jamoatchilik fikri o'rtasidagi bog'liqlik integrativ yondashuv, axborot manipulyatsiyasi va milliy identiklik masalalari nuqtai nazaridan o'rganilib, aholining turli qatlamlari o'z fikr-mulohazalarini erkin bildirish, muammolarga munosabat bildirish va nechim taklif etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ong va jamoaviy fikrning shakllanishida media muhitning kuchayib borishini, Qoraqalpog'istonda axborot maydonining regional o'ziga xosliklarini aniqlash, yoshlar ongini shakllantirishda ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning ta'sirini hamda islohotlar, qonunlar va milliy g'oyani jamiyatga to'g'ri yetkazishda media markazlardan samarali foydalanish mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini ta'minlash bo'yicha islohotlar jurnalistlarning huquqlarini kengaytirishga, ijtimoiy ahamiyatga ega masalalar – majburiy mehnat, korrupsiya, uy-joy muammolari haqida tahliliy materiallar tayyorlashga, jamoatchilik fikriga asoslangan qarorlar qabul qilinishiga, ularning mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilmoqda. “Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki unga aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilandi. Ushbu norma jurnalistlarning turli ma'muriy bosimlardan qo'rqmasdan, erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda axborot erkinligining yanada keigayishiga, jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi”<sup>1</sup>. Shu bois, Qoraqalpog'iston zamonaviy mediamarkazlarining umuminsoniy va milliy mediamakoni, ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: "O'zbekiston", 2024. - B. 53.

tajribalarini tahlil etish hamda faoliyatini samarali tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 923-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jamiyat taraqqiyotini inson huquq va erkinliklari, so‘z erkinligi, siyosiy plyuralizm va iqtisodiy demokratiya, ijtimoiy borliqni anglashga va o‘zgartirishga qaratilgan ijodiy faollik, kreativ tashabbus bilan bog‘lash falsafa tarixidagi qadimiy an‘analardan biri hisoblanadi. Suqrot, Konfutsiy, Buddaning pandnoma bitiklari so‘z erkinligi va ijtimoiy fikrni shakllantirishga oid ibratli misollardir. Epikur maktabi, Platon akademiyasi, Aristotel saboqlari, Epiktet va‘zlari va Seneka maktublari, kiniklar va stoitsizm falsafasi aslida hayot, boshqarish, inson va uning taqdiri, ezgulik va yovuzlik, jamiyat taraqqiyotiga oid ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan

texnologiyalardir<sup>2</sup>. Muammoning industrial va postindustrial jamiyatlar bilan bog‘liq ayrim jihatlari Aleksis de Tokvil, F.Fukuyama, P.Byukenen, T.Flint, J.Bodriyyar, G.Makdonald, T.Yaglom, M.Santuni, Dj.Bern, M.Lloid asarlarida muhokama qilingan<sup>3</sup>. Mazkur tadqiqotlarda mediamarkazlarning jamiyatni demokratlashtirish, so‘z erkinligini ta‘minlash va uning tafakkurning o‘zgarishiga ta‘siri borasida fundamental ahamiyatga ega xulosalar chiqarilgan.

Muammoga oid MDH olimlari ham maxsus tadqiqotlar olib borishmoqda. Bu o‘rinda avvalo A.V Drozdov, A.M.Balaban, I.Bestujev-Lada, L.G.Galovach, A.N.Chekmarev, I.V.Kiriya, A.A.Novikova, Ya.N.Zatsurskiy, I.Jilavskaya, I.V.Chelisheva, V.L.Broydo, G.Pochepsov, V.V.Tulupov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini eslash mumkin<sup>4</sup>.

Muammoning ayrim jihatlari O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan faylasuflar, akademiklar S.Shermuhamedov, N.Hakimov, S.Norqulov, Z.Qodirova, A.Umarov, O.Musayev, O.O‘sarov, T.Ernazarov, X.Do‘stmuhamedov, T.Yazdanov, B.Turdiev, S.Choriev, Qoraqalpog‘istonda esa Q.R.Perdebayeva, J.Q.Marziyayev, D.Bekbauliyev, S.Nurjanov, L.Urazova kabilar o‘rganishgan<sup>5</sup>. Ammo ularda Yangi O‘zbekiston va Yangi Qoraqalpog‘iston davridagi yangilanishlar tadqiq etilmaydi, chunki bu davr endi boshlanayotgani bilan ham e‘tiborlidir.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar muammoning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, ularda ijtimoiy fikrni

---

<sup>2</sup> Платон. Собрание сочинений в четырех томах. Том 1.- Москва: “Мысль”, 1990; Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 1.- Москва: “Мысль”, 1976; Лазертский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов.-Москва: “Мысль”, 1979; Конфуций, Сократ. Я знаю, что ничего не знаю. Составитель В.Малявин, А.Марков. -Москва: “АСТ”, 2022; Римские стоики. Сенека, Эпиктет, Марк Аврелий. -Москва: “Республика”, 1995.

<sup>3</sup> Алексис де Токвиль. Демократия в Америке.- Москва: “Наука”, 1981; Фукуяма Ф. Доверие. -Москва: АСТ, 2006; Santunie M. Online mass media. -London, 2015; Bern J. Mass communication and mass society. -Jakarta, 2019; Lloid M. Internet security and genres. -New York, 2017.

<sup>4</sup> А.В.Дроздова. Школьный медиацентр: выход из зоны комфорта // Современное состояние медиаобразования в России в контексте мировых тенденций.//Материалы 11-международной научной конференции. -Таганрог: ТГУ., 15 октября 2020г. 524 с.; Чекмарев А.Н. Домашний медиацентр. -Москва: Литрес, 2021; Кирия И.В., Новикова А.А. История и теория медиа. -Москва: АСТ, 2020; Колесниченко Д.Н. Linx. От новичка к профессионалу. 6-е изд. -Санкт Петербург:БХВ Петербург, 2018; Бигаева М. Х. Обратная связь в стратегии современных массмедиа.// Современные проблемы науки и образования.Ж. 2015, №1. С.11-24; Жилавская И. Медиаобразование моллодежи. -Москва: Литрес, 2022;

<sup>5</sup> Шермухамедов С. Биз қандай жамият қураёмиз? -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2006; Норкулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. -Тошкент: “Navro‘z”, 2015; Эрназаров Т. Ўзбек журналистикаси. -Тошкент: “Шарқ”, 2003; Х.Дўстмухамедов. Ахборот мўжиза, жозиба, фалсафа. -Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013; Язданов Т. Фуқаролик жамияти ривожиди жамоатчилик фикрининг роли. -Тошкент: “Нишон нашр”, 2015; Turdiev B. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojlanishida ma’naviy yangilanishlar strategiyasi. Monografiya. -Toshkent: “Lesson press”, 2023; Turdiev B. Yangi O‘zbekiston jamiyati taraqqiyoti ideosferasidagi o‘zgarishlar dinamikasi. Monografiya. -Toshkent: “Dimal”, 2024; Choriev S. Ontologiya. Darslik. -Qarshi: “Fan va ta’lim”, 2021; Пердебаева Қ.Р. Медиадизайн // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 2018, № 3 (40), 172-173 б.; Абдимуратов А.У. Ғалаба хабар куралларинда конвергенция // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 2018, №2, 159-160 б.; Дусимбетова Н. Ахборот глобаллашуви даврида интернет хавфсизлиги масалалари // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети Ахборотномаси, 2017, № 4 (37), 150-152 б.; Атажанов Х. Қорақалпоқ матбуотида умуминсоний ва миллий маънавий кадрларнинг ёритилиши // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси, 2010, № 2, 95-98 б.). Джумашев А. ва бошқалар. Қарақалпақстан тарийхи (1991-2015-жыллар) -Нукус, “Илим”, 2018; Нуржанов С. Периодическая печать Каракалпакстана в системе общественных отношений. -Нукус, “Илим”, 2015; Уразова Л. История возрождения национальной культуры Каракалпакстан: (1985-2005гг.). - Нукус, “Илим”, 2009.

shakllantirishda OAVning rolini tan olish va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatishga diqqat qaratilgan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqli ravishda in dissertatsiyalardan farqi ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida o'rganilayotgani, mediamarkazlarining o'ziga xos faoliyati, ijtimoiy fikrni shakllantirish mexanizmlariga e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston Respublikasida demokratik yangilanishlarni real voqelikka aylantirish va ijtimoiy fikrni shakllantirishda zamonaviy mediamarkazlarning o'rnini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"ijtimoiy fikr" tushunchasining etimologik va falsafiy-aksiologik talqinlarini ochib berish;

ijtimoiy fikr va so'z erkinligining sotsiodemokratik xususiyatlarini hamda ijtimoiy fikr, so'z va matbuot erkinligining dialektik bog'liqligining tadqiq etish;

mediamarkazlarning institutsional tizimlari va sotsiodemokratik funksiyalarini asoslab berish;

mediamarkazlarni inson huquq va erkinliklari, ayniqsa so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan verbal va vizual demokratiya institutlari sifatida ahamiyatini ochib berish;

Qoraqalpog'istondagi zamonaviy mediamarkazlarning tizimlarini, ularning umuminsoniy va milliy mediamakon (ijtimoiy fikr)ni shakllantirish borasidagi tajribalarini umumlashtirish;

mediamarkazlar faoliyatini baholash muammolarini o'rganish, bu borada nazariy falsafiy modelni yaratish orqali ijtimoiy fikrni shakllantirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish, amaliyotga tavsiya etishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** jamiyatda ijtimoiy fikrning shakllanishi jarayoni va unga ta'sir etuvchi zamonaviy mediamarkazlarning faoliyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** Qoraqalpog'istondagi zamonaviy mediamarkazlarning institutsional tizimlari va ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan sotsiodemokratik funksiyalarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik tahlil va sotsiologik so'rovnomalar kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"ijtimoiy fikr" tushunchasining ilmiy-etimologik (diniy, madaniy va ijtimoiy kontekst), falsafiy-aksiologik (axloqiy qadriyatlar, tarixiy ong, ma'naviy tamoyillar) talqinlari hamda uning nazariy-konseptual jihatlari (ijtimoiy ong va

ijtimoiy tajribaning aloqadorligi, tarixiy-sivilizatsiyaviy dinamikasi) asosida ijtimoiy muhitdagi g‘oyaviy-axborot jarayonlarini, ijtimoiy ongni boshqarish strategiyalari va ijtimoiy faollikni shakllantirish omillari asoslab berilgan;

zamonaviy mediamarkazlarning yuridik maqomi, moliyaviy asoslari, axborot siyosati, kadrlar siyosati kabi tashkiliy-institusional tizimlari, axborot tarqatish, ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolik faolligini rag‘batlantirish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, jamoatchilik fikrini uyg‘otish kabi sotsiodemokratik funksiyalari hamda ularning “erkin fikr – ochiq jamiyat – ijtimoiy nazorat” prinsipida ijtimoiy fikrni verbal va vizual demokratiya vositalari orqali shakllantiruvchi institut sifatidagi maqomi aniqlashtirilgan;

Qoraqalpog‘iston zamonaviy mediamarkazlari institusional tuzilmasi, funksional yo‘nalishlari, moliyaviy hamda siyosiy mustaqilligi kabi mezonlar asosida tizimlashtirilgan, ularning milliy mediamakon, ijtimoiy fikr yaratishdagi (milliy-madaniy identiklikni shakllantirish, yoshlar ongiga milliy g‘ururni singdirish borasidagi media kontent) innovatsion tajribalari ochib berilgan;

Qoraqalpog‘iston zamonaviy mediamarkazlarining institusional (mustaqillik darajasi, normativ-huquqiy bazaga asoslanganligi va axborot xavfsizligi) mezonlari, ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi kommunikatsiya (ta’lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati subektlari) va kooperatsiya (hamkorlikdagi loyihalar, kontent bo‘yicha kelishuvlar) parametrlari asosida digital kontent, ijtimoiy tarmoq strategiyalari, mobil ilovalar orqali ta’sir etish mexanizmlari takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy fikrda kishilarning hissiy-emotsional munosabatlar, obektivlik va ratsionallik sotsial-demokratizm prinsipini ifoda etishi, ijtimoiy fikr sotsiodemokratik mediamuhitni shakllantirishi, kishilarning tasavvurlari va qarashlarini o‘zgartirish, yangicha yondashuvni shakllantirish kuchiga egaligi, ma’lum bir demokratik ustanovkalarini, qarashlarni shakllantirishi asoslab berilgan;

zamonaviy mediamarkazlarning inson huquqlari, erkinliklari, so‘z erkinligini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatishi, o‘ziga xos tarzda demokratik qadriyatlarning ijtimoiy fikrda shakllantirishi media sohasida strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, mediamarkazlarning funksional modellarini yaratishda asos bo‘lishi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan media o‘rtasida hamkorlik platformalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan;

Qoraqalpog‘iston mediamarkazlarining axborotlar to‘plash va tarqatish, kommunikatsiyalar uyushtirish, mushtarak kontent, ijtimoiy kampaniyalar va media-ma’rifiy loyihalar orqali kooperatsiyani tashkil etish, umuminsoniy va milliy mediamakon (ijtimoiy fikr)ni targ‘ibot-axborot usullari asosida kuchaytirish shakllantirishda ijtimoiy fikr makonini rivojlantirish strategiyasi modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi

ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy ong va fikr shakllanishi jarayonini tahlil qilishda, zamonaviy mediamarkazlarning sotsial-falsafiy funksiyalarini aniqlash, ayniqsa, Qoraqalpog'iston sharoitida mahalliy identiklikni shakllantirish, madaniy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishda, axborot maydoni va jamoatchilik fikrining o'zaro aloqadorligini o'rganish, milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong integratsiyasini media orqali ta'minlash faoliyatida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, so'z erkinligini ifoda etuvchi matbuot, mediamarkazlar, axborot texnologiyalariga ega zamonaviy tashviqot muassasalari uchun zarur bo'lgan ilmiy va uslubiy materiallar, qo'llanmalar, maxsus kurslar uchun ma'ruzalar tayyorlash, onlayn darslarni uyushtirishda va yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda keltirilgan nazariy umumlashmalar va amaliy takliflardan davlat siyosatini aholiga tushuntirishda media vositalarining strategik rolini, aholiga islohotlar, qonunlar, va yangi tashabbuslarni tushunarli va tez yetkazish orqali fuqarolarda ijtimoiy fikr shakllanishiga, axborot platformalari ijtimoiy guruhlarining muloqoti ta'minlashda, fuqarolik jamiyati institutlarining targ'ibot materiallarini tayyorlashda, innovatsion targ'ibot va PR strategiyalarini boyitishda, oliy ta'lim muassasalaridagi media markazlar orqali yoshlarda tahliliy ong va fuqarolik mas'uliyatini oshirishda, ijtimoiy interaktivlikni ta'minlashda, ijtimoiy fikrni shakllantirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalarni, metodik modellarni va kommunikatsion texnologiyalarni taklif etish, sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog'istondagi zamonaviy mediamarkazlarning mediamakon va ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

“ijtimoiy fikr” tushunchasining ilmiy-etimologik (diniy, madaniy va ijtimoiy kontekst), falsafiy-aksiologik (axloqiy qadriyatlar, tarixiy ong, ma'naviy tamoyillar) talqinlari hamda uning nazariy-konseptual jihatlari (ijtimoiy ong va ijtimoiy tajribaning aloqadorligi, tarixiy-sivilizatsiyaviy dinamikasi) asosida ijtimoiy muhitdagi g'oyaviy-axborot jarayonlarini, ijtimoiy ongni boshqarish strategiyalari va ijtimoiy faollikni shakllantirish omillariga doir nazariy xulosalar va tavsiyalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170915198 – “Qoraqalpog'iston jamiyatidagi ijtimoiy ko'rsatmalar transformatsiyalanishi: tarix va amaliyot” mavzusidagi ilmiy loyihasida tadqiqot ishining metodologik bazalaridan biri sifatida keng

foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 24-martdagi 157/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihada asoslab berilgan xulosalardan kelib chiqqan xolda, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor tavsiyalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy mediamarkazlarning yuridik maqomi, moliyaviy asoslari, axborot siyosati, kadrlar siyosati kabi tashkiliy-institusional tizimlari, axborot tarqatish, ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolik faolligini rag'batlantirish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, jamoatchilik fikrini uyg'otish kabi sotsiodemokratik funksiyalari hamda ularning "erkin fikr – ochiq jamiyat – ijtimoiy nazorat" prinsipida ijtimoiy fikrni verbal va vizual demokratiya vositalari orqali shakllantiruvchi institut sifatidagi maqomiga oid mulohazalar, umumlashmalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining V yo'nalishida belgilangan "Jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash masalalari" 24-bandi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan monitoring hamda sotsiologik tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish va o'tkazish choralari ko'rish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 16-martdagi 102-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirishda zamonaviy mediamarkazlarning o'rnini rivojlantirishga xizmat qilgan;

Qoraqalpog'iston zamonaviy mediamarkazlari institusional tuzilmasi, funksional yo'nalishlari, moliyaviy hamda siyosiy mustaqilligi kabi mezonlar asosida tizimlashtirilgan, ularning milliy mediamakon, ijtimoiy fikr yaratishdagi (milliy-madaniy identiklikni shakllantirish, yoshlar ongiga milliy g'ururni singdirish borasidagi media kontent) innovatsion tajribalariga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan "O'zbekiston" teleradiokanalining 2024-2025 yillarda efirga uzatilgan "Millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 7-apreldagi 05-09-429-son ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy mediamarkazlarning institusional tizimlari va sotsiodemokratik funksiyalarini ochib berish orqali ularning inson huquqlari, erkinliklari, ayniqsa so'z erkinligini ta'minlashga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, har bir mediamarkaz o'ziga xos tarzda demokratik qadriyatlarning ijtimoiy fikrda shakllanishiga hissa qo'shishi borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

Qoraqalpog'iston zamonaviy mediamarkazlarining institusional (mustaqillik darajasi, normativ-huquqiy bazaga asoslanganligi va axborot xavfsizligi) mezonlari, ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi kommunikatsiya (ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati subektlari) va kooperatsiya (hamkorlikdagi loyihalar, kontent bo'yicha kelishuvlar) parametrlari asosida digital kontent, ijtimoiy tarmoq strategiyalari, mobil ilovalar orqali ta'sir etish mexanizmlariga doir taklif-tavsiyalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiya boshqarmasining yillik ish-rejasining 9-bandi "Hududiy davriy bosma OAVlar faoliyatini yaxshilash yuzasidan hududiy seminarlarni tashkil

qilish”, 17-bandi “Axborot xizmati rahbarlari, jurnalist va blogerlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-sentyabrdagi “Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” mazmun-mohiyati bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasining 2025-yil 24-martdagi 01-207-son ma‘lumotnomasi). Natijada, barcha ommaviy axborot vositalari xodimlarida bilim, ko‘nikma va tajribalarni shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta jumladan, 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt, predmet, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Demokratik taraqqiyot va ijtimoiy fikr, so‘z erkinligini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari**” deb nomlanadi.

Tadqiqotda ijtimoiy fikr va so‘z erkinligining sotsiodemokratik voqelikka, fenomenga aylanishi bilan bog‘liq tarixiy-madaniy jarayonlar, insonning yon-atrofini, borlig‘ini anglashida verbal vositalardan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishi, kishilar o‘rtasidagi jonli muloqot, fikr almashish kabi sotsiologik tajribalar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Dissertant fikricha, “Ijtimoiy fikr” tushunchasini anglash uchun avvalo uning etimologik talqiniga nazar tashlash lozimligi ta‘kidlanadi. Bu o‘rinda ikki “ijtimoiy” va “fikr” tushunchalariga duch kelinishi, ular aynan tushunchalar emas, balki kosubstansional voqeliklarning ifodalanishi ko‘rsatilib beriladi. “Ijtimoiy” degan so‘z jamiyatga, umumga va sotsial voqeliklarga oid iboradir. “Ijtimo” yoki “ijtimoiyod”, “ijtimoli” so‘zlari arabchadan olingan bo‘lib, jamoaga taalluqlilikni,

kishilar birligiga oid voqelikni, birgalikda amalga oshiriladigan narsalar, faoliyat va amallarni o‘z ichiga oladi. Ular negizida kishining biror amalni bajarishga berilishi, jamoa manfaatlariga mos tarzda fidoiylik ko‘rsatishi, ishlashi, harakat qilishi kabilar yotadi<sup>6</sup>. “Ijtimoiy” yoki “ijtimoiylik” rus tiliga “общественный”, “социальный” deb tarjima qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy” so‘zi o‘rniga ba‘zan “sotsial” yoki “sotsiallasuv” iborasi ham ishlatiladi<sup>7</sup>. “Ijtimoiy” so‘zining etimologik ma‘nosi “jamoaviy”, “jamiyatga taalluqli”, “umunga, ko‘pchilikka tegishli” degan ma‘nolarni anglatadi. Ammo “fikir” degan tushunchaga kelganda ancha leksikologik, grammatik va etimologik qarama-qarshiliklarga duch kelamiz.

Dissertant fikricha, lug‘atlarda “fikir” so‘zi biror narsa yoki voqelikka nisbatan bildirilgan munosabat, qarash, yondashuv, u yoki bu narsani ifodalovchi, kishining shaxsiy yoki umumiy qarashlarini ifodalovchi subyektiv narsa, voqelik sifatida ta’riflanadi. Uni munosabat, qarash, e’tirof, og‘zaki yoki yozma ifoda, o‘zining yoki boshqa birovning deganlarini etkazish, izohlash, talqin qilish, bildirish kabi rang-barang ko‘rinishlari borligini qayd etiladi. “Ijtimoiy fikr” ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga etish uchun uning ma‘nosini ochib berishga yordam beradigan “ijtimoiy ong”, “ijtimoiy tafakkur”, “jamoatchilik fikri”, “jamoqa qarashi”, “ko‘pchilik fikri” kabi ko‘plab iboralarga ham e’tibor berish zarur bo‘ladi. Bular, albatta, ijtimoiy-falsafiy emas, balki sotsioleksigrafik tadqiqotlarni taqozo etadi.


Tadqiqotda ijtimoiy falsafaga va bevosita mavzuga taalluqli “ijtimoiy ong”, “ijtimoiy tafakkur” va “jamoatchilik fikri” haqida fikrlar ham bayon etiladi. Ijtimoiy ongning fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq jihatlarini maxsus tadqiq qilgan S.Norqulov yozadi: “Ong, subyektiv voqelik sifatida, obyektiv borliqning in’ikosi ekani aksiomadir. Ammo bu in’ikos insonda ahamiyatli xatti-harakatlar, narsalar ta’siri ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ahamiyatli xatti-harakatlar, narsalar esa “obyektiv aloqalar, munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar tizimiga kiradi. Ahamiyat tilda ifodasini topadi va shu tarzda barqarordir. Aynan shu shaklda, ya’ni til shaklidagi ahamiyatida u ijtimoiy ong mohiyatiga kiradi”. Tadqiqotchi A.N.Leontevning “ahamiyatli xatti-harakatlar” haqidagi fikrlariga tayanib, ijtimoiy ongni ahamiyatli narsalarga qaratilgan xatti-harakatlarning in’ikosidir, degan xulosaga keladi. Ijtimoiy ong va ijtimoiy fikrning dialektik bog‘liqligini demokratiya bilan bog‘lashga intilgan S.Norqulov taniqli psixolog A.G.Maslou ketidan ijtimoiy falsafaga “kognitiv demokratizm” va “sotsial demokratizm” tushunchalarini kiritadi. Ushbu tushunchalar ijtimoiy ong va ijtimoiy fikrga bevosita taalluqlidir.

Dissertatsiyada kognitiv demokratizm shaxsning “Men”iga yo‘naltirilgani va “Men”dan kelib chiqqani bilan sotsial-demokratizm, ijtimoiy fikr tayanadigan obyektiv borliqdan farq qilishi borasida ham fikrlar tadqiq etiladi. Bu o‘rinda ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan “Men” fikri bilan ijtimoiy fikr, ya’ni “Biz”, “Ular”, Umum”, “Milliy”, “Xalq” fikrlari o‘rtasidagi farqlar borligi ma’lum bo‘lishi, ijtimoiy fikrning, subyektlariga muvofiq, Men, Biz, Ular, Umum, Milliy, Xalq, Umumbashariy pog‘analari paydo bo‘lishi haqidagi g‘oyalar ko‘rsatilib beriladi. Buni to‘ntarilgan konus tarzida tasavvur etish mumkin. (Qarang: 1-rasm)

<sup>6</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. - Москва: 1983. -Б. 169-170.

<sup>7</sup> Ўзбекча-русча луғат. -Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1988. -Б. 169.

**Ijtimoiy fikr pogʻanalari va ularning mediamakonga-  
ijtimoiy fikrni shakllantirishga yoʻnaltirilishi**



**1-rasm. Ijtimoiy fikrning subyektlariga muvofiq pogʻanalari**

Aynan dissertantni qarashlarida, konusning pastki qismida “Men” degan ijtimoiy fikr turishi izohlanib beriladi. Bu fikr shaxsning ijtimoiy borliqqa qaratilgan, ushbu ijtimoiy borliq haqidagi axborotlarni tarqatadigan fikrlar ifodasidir. Shaxs faqat oʻzining persanalistik yoki egoistik fikrlari doirasida qolavermaydi, u kognitiv demokratizmni sotsial demokratizmga aylantirishga intilishi bilan, Aristotel aytgan va nazarda tutgan “ijtimoiy mavjudot”ga aylanadi. Konusdagi navbatgi pogʻona “Biz” bilan bogʻliqdir. Bir necha kishilarning, guruhning, qarashlari va munosabatlari yaqin kishilarning fikrini ifoda etish pogʻonasidir. Bu pogʻonada “Men” emas, balki “Biz” sotsial ustanovka hisoblanadi. Unda hali “Men” butunlay assimlyatsiyalashmagan boʻladi, fikrlar uygʻunlashmasa-da, har holda umumiy pozitsiyani ifoda eta oladi. Shunga yaqin munosabatlarni “Ular” va “Umum” pogʻonalarida ham koʻrish mumkin. “Umum” deganda biz lokal (qishloq, aul, tuman, viloyat) doirasidagi fikrlar jamlanishini nazarda tutamiz. Ushbu “Umum”ga lokal qiziqishlariga oʻzining etnologik va etnomadaniy xususiyatlariga ega boʻlgan ijtimoiy makonda shakllangan qarashlarni kiritamiz. Masalan, qoraqalpogʻistonliklar shaxsning qayerdan Hojeylidanmi, Toʻrtkoʻl yoki Nukuslik ekanini tilidan, qarashlari va munosabatlaridan adashmay ajrata oladi. Demak, lokal etnoxususiyatlar ijtimoiy fikr pogʻonalariga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi<sup>8</sup>. “Milliy” fikr ijtimoiy fikrning yadrosini tashkil etadi. Koʻpincha ijtimoiy fikrning milliy tomoniga yoki milliy pogʻonaga koʻtarilishiga urgʻu berishadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy mediamarkazlar: tashkiliy institutsional tizimlari va sotsiodemokratik funksiyalari”** deb nomlanib mazkur bobda, mediamarkazlarning tashkiliy-institutsional tizimlari va sotsiodemokratik funksiyalari tadqiq etilgan.

<sup>8</sup> Налчаджян А.А. Этнопсихология. –Санкт-Петербург: “Питер”, 2007. -С. 134, 208, 243.

Dissertatsiyada “Mediamarkaz” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida, ommaviy axborot vositalarining kengayishi va yangi axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi tufayli iste’molga kirgan tushuncha ekanligi ko‘rsatilib beriladi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, u ilk bor AQSHda axborot-kommunikatsiyaning texnologik jihatini ifoda etuvchi voqelik sifatida qo‘llanilgan. Vikipediyada keltirilishicha, mediamarkaz “tadbirlar o‘tkazadigan, videoroliklar yozadigan, bir vaqtning o‘zida videoanjumanlar va ularni uzatadigan, ma’rifat va kommunikatsiya vazifalarini bajaradigan ijtimoiy kompaniya, talabalarning mediamutaxassislik darslarini o‘tkazadigan press-matbuot makonidir”<sup>9</sup>. A.Chekmarovning ta’rificha, mediamarkaz uy sharoitida tashkil etiladigan, barcha SMS, axborotlar, vedioyozuvlar, murojaat va aloqalarni pleyerlarga, ekranga, tomosha uskunalariga ko‘chirib beradigan texnik vosita, moslamadir<sup>10</sup>. Buning uchun yuborilgan axborotlar teledasturlar tarzida, ekranda namoyish etiladigan ko‘rinishda bo‘lishi, ya’ni televizor ekrani kabi qabul qilinishi darkor. Shunchaki axborotlar yoki videofilmlar emas, ularning shaxsga etkaziladigan elektron tasviri muhimdir. Ikki tamonlama muloqot, axborot almashuv, huddi mobil telefondagi IMO kabi, zamonaviy mediamarkazning o‘ziga xos xususiyatini tashkil qiladi. Undagi mediamuloqotlar kompyuterlar vositasida, ekran va pleyerlar orqali amalga oshirilib, axborot oluvchi o‘rtasidagi dialogni, axborot almashuvni tashkil etuvchi uskuna hisoblanadi.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa uy mediamarkazlarida 3D mediamarkazlar paydo bo‘ldi, bu uskuna axborotlarning ta’sirchanligini oshirib, bevosita mediamuloqot doirasini kengaytirib yubormoqda. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, mediamarkazlar “mediapleyerlardan ko‘ra ko‘p funksional, interfeyslarni to‘ldirish va takomillashtirish imkoniyatiga ega hozirjavob tizim, ular tashqi axborot manbasiga tez ulanadi, axborotni nafaqat tasvirlash, yozish va ko‘paytirish, xudi shuningdek, audio, video va grafik tasvirlarni qayta ishlash imkoniga ega”<sup>11</sup>. Agar mediapleyerlar axborotlarni qabul qilish va ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lsa, mediamarkazlar axborot va tasvirlarni ko‘paytirish va yozishi, ulardan o‘z maqsadlariga muvofiq foydalanishi, shu tarzda mediamakonda o‘z o‘rnini egallashi mumkin.

Tadqiqotda mediamarkaz, ya’ni axborot olish va ko‘paytirish, tarqatish, kompyuterlar orqali videoaudio muloqot o‘rnatishning qulay, kichi kuy sharoitida ham tashkil etish mumkin bo‘lgan vositalar ochib beriladi. Uni goho DVD pleyer yoki “multmediamarkaz” deb atashadi<sup>12</sup>. Qisqa qilib aytganda, mediamarkaz aloqa-axborot almashuvchilar (aloqa subyekti va aloqa obykti) o‘rtasidagi muloqot, fikr va tasvirlar almashish, videomanbalarni ko‘paytirish, uzatish, ularga o‘z munosabatlarini bildirish texnologiyasidir. Bu texnologiya maxsus axborot vositalari – DVD, teleekran, mobil aloqa (telefon), IMO, SMS, internet,

---

<sup>9</sup> Медиамарказ.// <https://blogsfera.ru>mediacentr>

<sup>10</sup> Чекмаров А. Windows XP/XP Media Center Edition 2005 Nista Домашний медиацентр. -Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2007. 12-13 с.

<sup>11</sup> Максимов Д. Что такое медиацентр? //PULT/RU. 2014, 15,07.

<sup>12</sup> Колесниченко Д.Н. Linux. От новичка к профессионалу. 6-е изд. -Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2018. -108-112 с.

kompyuterlar, pleyerlar, ovoz uzatgishlar, videoroliklar, Android TV, AV-risiverlar orqali amalga oshiriladi.

Dissertatsiyada “Media” so‘zi inglizcha bo‘lib, “ommaviy axborot vositalari” degan ma‘noni anglatishi tahlil etiladi. Agar ushbu etimologik talqindan kelib chiqsak, “mediamarkaz” (“Mediacenter”) ommaviy-axborotlar markazi degan ma‘noni anglatadi. Demak, mediamarkazlar an‘anaviy ammoviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniye, radio, kino) negizida yuzaga kelgan, ammo u ushbu vositalarni yanada samarali qiluvchi, keng ommalashtiruvchi zamonaviy texnologik usuldir.

Zamonaviy mediamarkazlarning institutsional ko‘rinishlari quyidagilardan iborat:

1. An‘anaviy ommaviy axborot vositalari;
2. Zamonaviy mediamarkazlar;
3. Superzamonaviy medialoyihalar.

An‘anaviy ommaviy axborot vositalari (AOAV) – gazeta, jurnal, radio, televideniye, kinoteatrlar, nashriyotlar, kutubxonalar mediamakonda etakchi o‘rinni egallaydi. Zamonaviy mediamarkazlarning paydo bo‘lishi an‘anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham zamonaviy mediamarkazlarni an‘anaviy ommaviy axborot vositalari rivojlanishining navbatdagi bosqichi, zamonaviy texnologiyaga asoslangan, davr va taraqqiyot talablariga javob beradigan ko‘rinishidir. Zamonaviy mediamarkazlar an‘anaviy ommaviy axborot vositalarini siqib chiqaradi, axborot uzatish va almashida an‘anaviy ommaviy axborot vositalari mediamarkazlarga tenglasha olmaydi, degan qarashlar ba‘zan uchrab turadi<sup>13</sup>. Bu tabiiy hol, chunki insoniyat hayotida, sivilizatsiya tarixida an‘anaviy ommaviy axborot vositalari o‘chmas, beqiyos iz qoldirgan. Bugun ham insoniyatning deyarli 90 foizdan ziyodi an‘anaviy ommaviy axborot vositalari xizmatlaridan foydalanadi.

Tadqiqotda an‘anaviy ommaviy axborot vositalari institutsional nuqtai nazardan davlat nazorati va qo‘llab-quvvatlashi ostida faoliyat yuritishi asoslanib berilgan. Ba‘zi davriy nashrlarda ”Mustaqil gazeta”, “Nodavlat nashr”, “Xususiy jurnal” degan ma‘lumotlar berilsa-da, ular ushbu talablarga javob beravermaydi. An‘anaviy ommaviy axborot vositalarining institutsional jihatdan rasmiy siyosiy tizimga, institutlarga qaramligi ijtimoiy fikrda qarama-qarshi goho o‘ta salbiy-tanqidiy yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy mediamarkazlarda ijod erkinligi, ma‘muriy tazyiqdan xolilik, moddiy ta‘minot nuqtai nazaridan esa, o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash ustuvordir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qoraqalpog‘istonda ijtimoiy fikrni shakllantirishda zamonaviy mediamarkazlarning o‘rni: innovatsion izlanishlar va baholash muammolari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda Qoraqalpog‘iston Respublikasi mediamarkazlarining umuminsoniy va milliy mediamakonni shakllantirish xususiyatlari, ijtimoiy fikr bilan mediamarkazlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik, bu boradagi tajribalar va ziddiyatlar tadqiq

---

<sup>13</sup> Пушкина Е.В. Современное состояние и будущее печатных средств массовой информации. «Молодой учёный» журнал, 2014 г., июнь. № 8 (67). С. 412.

etilgan. Yangi O‘zbekistonda shakllantirilayotgan mediamakon umumiy voqelik sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham o‘z aksini, ifodasini topishi tabiiy holdir.

Tadqiqotda etnomadaniy, etnosotsial va etnotafakkurdagi evrilishlar, ziddiyatlar ham mavjudligi tahlil etiladi. Umuminsoniy mediamakon milliy xususiyatlar va imkoniyatlarni rad etmaydi, unga har qanday axborotni, standart va modulni joylashtirish mumkin. Yuqorida keltirilgan Web va on-line rejimiga muvofiqlashtirilgan Moodle platformasi bugun Qoraqalpog‘istondagi oliy ta‘lim tizimida o‘z ifodasini topmoqda. Mazkur platforma, “o‘quv jarayonini boshqaruvchi va samarali qiluvchi Web ga yo‘naltirilgan maxsus ta‘lim tizimi bo‘lib, internet tarmog‘ida foydalanishga mo‘ljallangan. Dissertatsiyada, tizimni yaratishda ochiq kodli dasturiy ta‘minotlardan foydalanilish mumkinligi tahlil etiladi. Uni ishlatish uchun ma‘lumotlar omborini boshqarish dasturi (My SGL yoki PostgreSQL), PHP protsessori, Web xizmati dastur (Apache IIS)lari sozlangan server zarur. Operatsion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan tizilardan biridan foydalanish mumkin (Windows. Linux, Mac OS X, Novwll Netware). O‘quv moduli yozilayotgan vaqtda tizimning barqaror versiyasi mooble 2.5.Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.mooble.org>. Mooble abbreviatura tarzida Modular Objekt Oriented Dynamic Learning Environment modulli obyektga yo‘naltirilgan dinamik o‘qitish muhiti (MOYDO‘M), GNU GPL litsenziyasi bo‘yicha erkin foydalanish mumkin bo‘lgan veb (vebga yo‘naltirilgan) ilova hisoblanadi. Mooble tizimi “ijtimoiy konstruktivizm pedagogikasi” asos qilib olingan”<sup>14</sup>. Mooble platformasi dunyoning 160 davlatida, 72 tilda, shu jumladan, o‘zbek tilida ham 37 000 versiya orqali tarqalgan. Bu o‘rinda platformaning umuminsoniy va milliy resurslarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Qoraqalpog‘istonda ushbu imkoniyatlardan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanayotgan J.Xoshniyazov, N.Dawqarayev nomidagi Til va adabiyot instituti xodimi Q.Smamutov, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limining yetakchi ilmiy xodimlari A.Muratov va E.Oteniyazov qoraqalpoq tilidagi ilmiy maqolalarni, innovatsion ishlanmalar va o‘lka etnografiyasiga oid manbalarni internetga kiritib borayotgani bizga ma‘lum.

Dissertatsiyada mediamarkazlarning kommunikatsiya doirasi keng emas edi, ularda hatto avtoritar boshqarishga moslashish ko‘zga tashlanishi borasida so‘z yuritiladi. Ushbu holat respondentlarimizning “Mediamarkazlar asosan qaysi mavzularga ko‘proq e‘tibor berishi lozim” deb hisoblaysiz degan savolimizga bergan javoblarida yaqqol seziladi.

Olingan javoblar quyidagicha taqsimlangan:

Iqtisodiy muammolarga-58%
